

*Andijon davlat pedagogika instituti "Musiqa ta'limi" yo'nalishi I*

*bosqich talabasi*

*Nozimjonova Kamola Farxod qizi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqoladi o'quvchilar bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali o'tkazishda musiqa fani to'garaklarining ahamiyatli jihatlari yoritib o'tilgan. To'garaklardan ko'zlangan maqsad, o'quvchilarda musiqiy did, eshitish, tinglash, jamoada bir-birlarini xurmat qilish kabi estetik tarbiyani shakllantirish borasida olimlar fikrlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa asari, ijodkor, musiqaviy-badiiy did, g'oya, tarbiya, to'garak, ijrochi, madaniyat, shaxs, fazilat.

## **ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫХ КРУЖКОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ДОСУГА УЧАЩИХСЯ**

*Студентка I ступени Андиканского государственного  
педагогического института по направлению "Музыкальное образование"  
Назимжонова Камола Фархадовна*

**Аннотация:** В данной статье освещены важные аспекты кружков музыковедения в содержательном и продуктивном проведении досуга учащихся. Излагаются идеи ученых о цели кружков, о формировании у учащихся эстетического воспитания в виде музыкального вкуса, слуха, слушания, уважения друг к другу в коллективе.

**Ключевые слова:** музыкальное произведение, создатель, музыкально-художественный вкус, идея, воспитание, кружок, исполнитель, культура, личность, добродетель.

***ISSN:3060-4567 Modern education and development***  
**THE IMPORTANCE OF MUSICAL CIRCLES IN PROVIDING**  
**STUDENTS WITH FREE TIME**

*A student of the first stage of the Andijan State Pedagogical Institute in the field of Music education Nazimzhonova Kamola Farkhadovna*

**Annotation:** this article highlights the significant aspects of music science circles when students spend their free time meaningfully and efficiently. Scientists' opinions are expressed on the purpose of circles, the formation of aesthetic education in students, such as musical taste, hearing, listening, honoring each other in the team.

**Keywords:** musical work, creative, musical-artistic taste, idea, upbringing, circle, performer, culture, personality, virtue.

**Kirish.** Vatanimiz mustaqil bo‘lgan kundan boshlab, o‘zligimizni anglash va uni qadriga yetish, ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni kelajak avlodga bezavol yetkazish oldimizda turgan ulkan maqsadlarimizdan biriga aylangan. Bu borada jamiyatimizda, barcha sohalar singari ilm-fan sohasida ham talaygina ishlar amalga oshirilib borilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek «Musiqa – hech narsa bilan o‘lchab, solishtirib bo‘lmaydigan beqiyos ilohiy ta’sir kuchiga ega»!. Shunday ekan inson tarbiyasida musiqa san’atining o‘rni beqiyosdir, uning har tomonlama inson ongiga ta’siri ijobiy ekanligi olimlar tomonidan o‘z isbotini topgan.

Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy ham musiqa san’ati ulkan tafakkur manbai, usiz bolaning aqliy rivojlanishiga erishib bo‘lmasligini e’tirof etgan. Zotan, har bir musiqa asarida ijodkorning ma’lum g‘oyasi yoki biror badiiy mazmun bo‘ladi. Musiqaning mazmuni o‘quvchining g‘oyaviy emotsiyonal xissiyoti faol kechishi natijasida idrok etiladi. Shuning uchun to‘g‘ri tarbiyalangan musiqaviy-badiiy did musiqa asarining g‘oyaviy va badiiy mazmunini chuqur anglashda katta rol o‘ynaydi. Demak, ahloqiy va aqliy-g‘oyaviy tarbiya badiiy tarbiyaning ichki mazmunidir. Bu vazifani amalga

oshirishda xalq musiqasi va kompozitorlar asarlarining mohiyatini, ularning tuzilish jihatidan farqini, milliy xususiyatlarini hamda janr tuzilishlarini o‘rganish zarur. Bunda atoqli san’atkorlar ijodi bilan tanishish, ular yashagan davrni bilish, ular yaratgan asarlarni musiqiy-pedagogik jihatdan tahlil etib o‘rganish, mashxur asarlar taqdiri va tarixi bilan tanishish muhim rol o‘ynaydi.

### **Asosiy qism.**

Bugungi kunda o‘quvchilarinng bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri shakllantirishda musiqa fani to‘garaklarining ahamiyati katta, shu bilan bir qatorda bu to‘garaklarni to‘g‘ri shakllantirish o‘qituvchilardan talab etiladi.

Buyuk mutafakkir allomalarimiz musiqa san’atini, ijrochilik madaniyatini inson shaxsini kamol toptirishida olivjanob insoniy fazilatlarni tarbiyalashdagi ahamiyatiga yuksak baho bergenlar. Qadimgi dunyo donishmandi Aristotel ham o‘zining «Siyosat» nomli asarida tarbiya masalasiga falsafiy nuqtai nazaridan yondashib, bunda musiqaning rolini alohida ta’kidlab o‘tgan.

Aristotelning fikricha musiqa inson hayotida tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Musiqa insonning kundalik turmushida ham muhimi ahamiyat kasb etishi, uning dam olishi va charchoqlarni musiqa ohanglarini tinglash orqali davom ettirishini ham ko‘rsatib o‘tgan. Gomerning she’rlarida ziyofatlarda madaniy dam olish uchun qo‘schiqchining o‘rni kattadir, uning tashrifi barchaga zavq bag‘ishlaydi deb ta’rif berib o‘tadi. Xuddi shunday fikrni tasdiqlagan xolda Odisey ham o‘z fikrlarini quyidagicha izoxlaydi “Ziyofatlarda aytilgan qo‘shiqlar yon atrofdagi tinglovchilarga ham zavq bag‘ishlaydi”.

Olimlarimizning inson hayotida musiqaning o‘rni beqiyosligini ular olib borgan ilmiy meroslarida ham kuzatishimiz mumkin. Bu borada har inson kamolatida musiqa san’atining o‘rni beqiyosligi, u inson qalbini, ruhini parvarish qilishda mo‘jizaviy imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan olib borilayotgan islohatlariga musiqa o‘qituvchilari va o‘quvchilari tomonidan labay deb javob berilayotgani natijalarda ko‘rish mumkin. Bu borada musiqiy to‘garaklarda, musiqa nazariyasi, qo‘schiq va musiqa cholq‘ularini o‘rganish mexanizmlari ishlab turganini misol qilish mumkin.

Har bir umuta'lim maktablarida musiqa fan to‘garaklari mavjud bo‘lib, mazkur to‘garaklar reja asosida yo‘lga qo‘yilgan. Musiqa to‘garaklarining maqsadi o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilar hamda iqtidorli o‘quvchilar bilan ishslash jarayonlarini yo‘lga qo‘yishdan iboratdir.

To‘garaklarining bir nechta turlari mavjud bo‘lib, bular badiiy havaskor va texnik ijod to‘garaklari, havaskor uyushmalar va milliy universitetlar, maktablar va amaliy bilim va ko‘nikmalar kurslarini aytish mumkin. Assosiysi, ular ta’lim muassasasining maqsadlari va faoliyatiga mos keladi.

To‘garaklarda o‘quv va o‘quv mashg‘ulotlari birinchi o‘rinda turadi. Ular to‘garak ishi uchun ajratilgan vaqtning yarmidan ko‘pini tashkil qiladi. Ishtirokchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarining natijalarini konsertlar, ko‘rgazmalar, tanlovlari, amaliy darslar, ochiq darslar, ijodiy laboratoriylar, mahorat darslari va hokazolarda namoyish yetadilar.

Musiqa madaniyati darslarida hamda musiqiy to‘garaklari faoliyatida xalq qo‘shiqlarini tanlash va ulardan foydalanishda, jamoa bo‘lib kuylatishda ta’kidlab o‘tilgan pedagogik mezonlarga har bir o‘qituvchi o‘z imkoniyati, mavjud pedagogik shart – sharoitlarni hisobga olgan holda ijodiy yondashishlarini taqozo etadi. Ayni chog‘da, musiqa ta’limiga xos bo‘lgan mustaqil repertuar tanlash-imkoniyatlari bunday yondashuvlar zaruriyatini vujudga keltiradi.

Musiqa o‘qituvchisi hamda to‘garak rahbari boshchiligidagi o‘quvchilarning sekin – asta musiqiy eshitish qobiliyatları o‘sa boradi. Berilgan asarni taxlil qilishni ya’ni, kuy, uning garmoniyasini o‘ziga xos xususiyatlari, ritm, dinamik holatlar, lad tuzilishi va ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rgana boradilar .

Shuni aytib o‘tish joizki, o‘quvchilar musiqaviy malakalari, musiqaviy fikrlash doirasi qanchalik keng, ularning estetik hissiyotlari va musiqaviy idroklari qanchalik yorqin bo‘lsa, umumiyligi musiqaviy darajalari uchun shunchalik keng imkoniyatlar yaratiladi.

### **Hulosha.**

Hulosa qilib shuni aytish joyizki, musiqa fan to‘garaklarini ahamiyatli jihatni, o‘quvchilarni bo‘sish vaqtlarini mazmunli o‘tkazish va saradorlikka erishishdir. Bu to‘garaklarning ijobiylarini o‘quvchilarda musiqa fanini qoleversa estetik didini shakllanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Eshitish, tinglash, jamoada bir-birini xurmat qilish kabi fazilatlari shakllantib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.**

1. Ibroximov O. 4, 7 sinf «Musiqa» darslik T., 2004, 2001.
2. Mansurov A., Karimova D. 5 sinf «Musiqa» darslik. T., 2006.
3. Raximov N «O‘zbekiston Vatanim manim» 2 kitob. T., 1998.
4. Аристотель. Политика // Аристотель. Сочинения: В 4 т. Т. 4. – М.: Мысль, 1983. – С. 366.
5. Panjiev Q.B. Umumiylig o‘rtalim maktablarida musiqa to‘garaklarini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar. ZAMONAVIY TA’LIM / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ 2019, 9(82).